



Saidvaliyeva Madinaxon Fazliddin qizi,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: madinasaid@inbox.ru

OILADA O'SMIR BOLALAR IJODIY TAFAKKURINING SHAKLLANISH OMILLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilaning o'smir bolalar ijodiy tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Oila muhiti, ota-ona munosabati, psixologik qo'llab-quvvatlash hamda erkin fikrlashga undovchi sharoitlarning o'smir tafakkuri shakllanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, o'smirlarning mustaqil fikrlash, yangilik yaratish va ijodiy yondashuvini kuchaytirish bo'yicha pedagogik va psixologik tavsiyalar keltirilgan. Tadqiqot natijalari oilada sog'lom psixologik muhit yaratish o'smirlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim omil ekanini ko'rsatadi.

Аннотация. В статье рассматривается роль семьи в формировании творческого мышления подростков. Анализируется влияние семейной атмосферы, взаимоотношений родителей и психологической поддержки на развитие креативного потенциала ребенка. Особое внимание уделено условиям, способствующим развитию самостоятельного и новаторского мышления у подростков. Представлены педагогические и психологические рекомендации, направленные на укрепление творческой активности подростков в семейной среде.

Annotation. This article explores the role of the family in developing adolescents' creative thinking. It analyzes how family environment, parental relationships, and psychological support influence the development of creative potential in teenagers. The paper highlights the importance of encouraging independent and innovative thinking within the family context. Pedagogical and psychological recommendations are provided to enhance adolescents' creativity and motivation. The findings emphasize that a positive family atmosphere plays an important role in nurturing creative abilities during adolescence.

Tayanch so'zlar: oila, o'smir, ijodiy tafakkur, psixologik muhit, tarbiya, erkin fikrlash, innovatsion yondashuv, shaxs rivoji, ota-ona munosabati, motivatsiya.

Ключевые слова: семья, подросток, творческое мышление, психологическая среда, воспитание, свободное мышление, инновационный подход, развитие личности, родительские отношения, мотивация.

Keywords: family, adolescent, creative thinking, psychological environment, upbringing, free thinking, innovative approach, personality development, parental relationship, motivation.

Kirish. Bugungi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi davrida jamiyatning har bir aʼzosi, ayniqsa, yosh avloddan ijodkorlik, mustaqil fikrlash va yangicha yondashuv talab etiladi. Insonning ijodiy tafakkuri – nafaqat bilimlarni egallash, balki ularni tahlil qilish, yangilik yaratish va muammolarga noodatiy yechim topish qobiliyatidir. Shunday fazilatlarining shakllanishi esa, avvalo, oiladan boshlanadi. Oila – oʻsmir shaxsining ilk ijtimoiy maktabi boʻlib, unda bola nafaqat axloqiy qadriyatlarni, balki mustaqil va ijodiy fikrlash koʻnikmalarini ham egallaydi.

Oʻsmirlik davri inson hayotidagi eng murakkab, shu bilan birga, shaxsning intellektual va ruhiy rivojlanishidagi burilish nuqtasi hisoblanadi. Bu davrda yoshlar mustaqil qaror qabul qilish, oʻz nuqtayi nazarini himoya qilish, oʻziga xos fikrlash uslubini shakllantirishga intiladilar. Shu jarayonda oila muhitining, ota-onaning munosabati va ularning farzandga boʻlgan psixologik yondashuvi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Agar oilada erkin fikrlash, savol berish, muhokama qilish, xatodan qoʻrqmaslikka oʻrgatish kabi qadriyatlar mavjud boʻlsa, bu sharoit oʻsmir tafakkurining ijodiy rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Aksincha, nazorat va tazyiqqa asoslangan, erkin fikrlash imkoniyatini cheklovchi muhitda oʻsmir shaxsining ijodiy salohiyati toʻliq namoyon boʻla olmaydi.

Zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlari tadqiqotlariga koʻra, oʻsmirlarning ijodiy tafakkuri, avvalo, motivatsiya, qiziquvchanlik va mustaqil fikrlash ehtiyojiga tayanadi. Shu ehtiyojlarni shakllantirish va qoʻllab-quvvatlashda oilaning hissasi beqiyosdir. Ota-ona tomonidan beriladigan ishonch, ragʻbat, fikr bildirish imkoniyati va emotsional qoʻllab-quvvatlash oʻsmirning oʻz fikriga ishonchini oshiradi, uni ijodiy izlanishga undaydi. Ayniqsa, bugungi raqamli davrda ota-onaning farzand bilan birgalikda ilmiy, madaniy va ijodiy faoliyatlarda ishtirok etishi, yoshlarning yangi gʻoyalarini qadrlashi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston Respublikasida yosh avlodning ijodiy tafakkurini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mamlakatimizda yoshlarning tafakkurini erkinlashtirish, intellektual salohiyatini oshirish, innovatsion gʻoyalarini qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan koʻplab dasturlar amalga oshirilmoqda. Biroq oʻsmirlarning ijodiy fikrlashini shakllantirishda taʼlim muassasalari bilan bir qatorda oila muhitining oʻrni ham alohida oʻrganilishi lozim. Chunki oila – bola ongida fikrlash, his qilish, baholash va oʻzini ifoda etish madaniyatini shakllantiruvchi birlamchi psixologik makon.

Shu sababli, mazkur maqolada oilaning oʻsmir bolalar ijodiy tafakkurini rivojlantirishdagi oʻrni, unga taʼsir etuvchi psixologik va

Oʻsmirlik davri inson hayotidagi eng murakkab, shu bilan birga, shaxsning intellektual va ruhiy rivojlanishidagi burilish nuqtasi hisoblanadi. Bu davrda yoshlar mustaqil qaror qabul qilish, oʻz nuqtayi nazarini himoya qilish, oʻziga xos fikrlash uslubini shakllantirishga intiladilar.

*Nazariy jihatdan
olganda, ijodiy
faoliyatni
o'rganishda
genderga oid
yondashuv gender
psixologiyasi,
kognitiv fan
va pedagogika
tadqiqotlari
kesishgan nuqtada
yuzaga kelgan.
Empirik jihatdan
esa, turli tajribalar
va kuzatishlar
orqali, turli jins
vakillarining ijodiy
ifodalanishida
tizimli farqlar va
o'xshashliklar
aniqlangan.*

pedagogik omillar, shuningdek, ijodiy fikrlashni qo'llab-quvvatlovchi oilaviy sharoitlar tahlil qilinadi. Tadqiqotni o'tkazishdan maqsad o'smir yoshda ijodiy tafakkurning shakllanish jarayonida oilaviy muhitning o'rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu mavzu bo'yicha olib borilgan tahlillar oila institutining shaxs rivojidadagi rolini yanada chuqur anglashga, shuningdek, yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini oshirish bo'yicha samarali yondashuvlarni belgilashga xizmat qiladi.

O'smirlar orasida ijodiy tafakkur rivojlanishidagi gender xususiyatlari zamonaviy psixologik-pedagogik fanining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Bu holat biologik, psixologik, ijtimoiy va madaniy omillarning o'zaro bog'liq murakkab tizimini aks ettiradi va ijodiy salohiyat shakllanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Bu yo'nalishning dolzarbligi – o'g'il va qiz bolalarning individual qobiliyatlarini, ularning maxsus ehtiyojlari va xususiyatlarini inobatga olgan holda rivojlantirishga yo'naltirilgan moslashtirilgan tarbiya va o'qitish usullarini ishlab chiqish zaruratidan kelib chiqadi¹.

Maqsad va uni asoslash. Nazariy jihatdan olganda, ijodiy faoliyatni o'rganishda genderga oid yondashuv gender psixologiyasi, kognitiv fan va pedagogika tadqiqotlari kesishgan nuqtada yuzaga kelgan. Empirik jihatdan esa turli tajribalar va kuzatishlar orqali, turli jins vakillarining ijodiy ifodalanishida tizimli farqlar va o'xshashliklar aniqlangan. Zamonaviy neyrofan va psixobiologiya erkaklar hamda ayollar miyasi tuzilishi va funktsionalligidagi sezilarli farqlarni ko'rsatadi, bu esa kognitiv jarayonlar, xususan ijodiy tafakkurga bevosita ta'sir qiladi. Ushbu farqlar genetik, gormonal va muhit omillarining murakkab o'zaro ta'sirida shakllanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erkaklar va ayollar ijodiy vazifalarni bajarayotganda miyaning turli sohalari faollashuvi bilan farqlanadilar. Masalan, Jung-Beeman va boshqalar olib borgan tadqiqotga ko'ra, erkaklarda ko'proq fazoviy va vizual tafakkur uchun mas'ul bo'lgan o'ng yarimshar faollashadi, ayollarda esa yarimsharlar faoliyati nisbatan baravar taqsimlanadi, bu esa ularning yaxshi og'zaki va kommunikativ ko'nikmalari bilan bog'liqdir². Lenroot va Giedd qayd etishicha, o'smirlik davrida qizlarda miyaning peshona qismlari erta yetilishni boshlaydi, bu esa ijodiy jarayonlarni rejalashtirish va nazorat qilish

¹ Сафарова Р.Г. ва б. Ўқувчи-ёшпарда оммавий маданиятга қарши курашчанлик кўникмаларини шакллантиришнинг педагогик-психологик механизмлари. Монография. – Тошкент: “Tafakkur qanoti” нашриёти, 2018.

² Jung-Beeman M, Bowden EM, Haberman J, Frymiare JL, Arambel-Liu S, Greenblatt R, et al. (2004) Neural Activity When People Solve Verbal Problems with Insight. PLoS Biol 2(4): e97 // <https://doi.org/10.1371/journal.pbio.0020097>

uchun muhim bo'lgan ijro funksiyalarining rivojlanishiga yordam beradi. O'g'il bolalarda esa sensor-motor va fazoviy funksiyalar bilan bog'liq miya sohalari faolroq rivojlanadi³.

Gormonlar, xususan, testosteron va estrogen kognitiv qobiliyatlar hamda ijodiy faollikka ta'sir ko'rsatadi. Hines olib borgan tadqiqotda prenatal davrda testosteron darajasi fazoviy qobiliyatlar va tajovuzkorlik bilan bog'liqligi ko'rsatilgan, bu esa texnika va muhandislik sohalariga yo'naltirilgan ijodiy faoliyat turlarining shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin⁴. Aynan shu vaqtda estrogen og'zaki ko'nikmalar va emotsional sezgirlikka ta'sir ko'rsatadi. Bu esa adabiyot, san'at va musiqa bilan bog'liq ijodiy faoliyatlarda namoyon bo'ladi.

Biologik farqlar mavjudligiga qaramay, zamonaviy ilm-fan ularning qat'iy belgilovchi omil emasligini ta'kidlaydi. Ko'plab tadqiqotchilar, jumladan, Hayd kognitiv qobiliyatlar bo'yicha "gender tengligi" g'oyasini ilgari suradi, bu yerda farqlar ko'proq ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog'liq o'zgaruvchan xususiyatga ega⁵. Demak, biologik asos faqat potensialni belgilaydi, u esa tarbiya, ta'lim va jamiytdagi shart-sharoitlarga qarab rivojlanishi yoki to'xtab qolishi mumkin.

Gender stereotiplari – erkaklar va ayollarning jamiyatdagi xatti-harakati, sifati va rollari haqidagi kutishlarni belgilab beruvchi, madaniy, tarixiy, ijtimoiy va diniy an'analar asosida shakllangan barqaror ijtimoiy tasavvurlar⁶. Ular norma sifatida amal qiluvchi andozalardir hamda shaxsning "maqbul" deb topilgan xulq va rollarga muvofiqligi baholanishi uchun mezon sifatida xizmat qiladi. Bu esa shaxs rivojiga, xususan, ijodiy tafakkurga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Tarixan gender stereotiplarining shakllanishi jins asosidagi mehnat va ijtimoiy funksiyalar taqsimotiga bog'liq bo'lgan. Patriarxal jamiyatlarda erkak faol ijtimoiy shaxs, ayol esa uy-ro'zg'or va tarbiya mas'uliyatini bajaruvchi deb qaralgan. Ushbu qarashlar urf-odatlar, din va huquqiy me'yorlar orqali mustahkamlangan. XX asrda feministik harakatlar va gender muammolari bo'yicha tadqiqotlarning rivojlanishi ushbu stereotiplarni tanqidiy qayta ko'rib chiqish imkonini berdi. Zamonaviy gender nazariyasi jins va genderni ijtimoiy konstruktsiya sifatida ko'rib, ularning madaniy jarayonlarga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Tarixan gender stereotiplarining shakllanishi jins asosidagi mehnat va ijtimoiy funksiyalar taqsimotiga bog'liq bo'lgan. Patriarxal jamiyatlarda erkak faol ijtimoiy shaxs, ayol esa uy-ro'zg'or va tarbiya mas'uliyatini bajaruvchi deb qaralgan. Ushbu qarashlar urf-odatlar, din va huquqiy me'yorlar orqali mustahkamlangan.

³ Lenroot, R. K. va Giedd, J. N. O'smir miyasida jinsiy farqlar. *Neuroscience & Biobehavioral Reviews*, 30 (6), 875-886, 2010 // <https://doi.org/10.1016/j.neubiorev.2006.06.001>

⁴ Практикум по гендерной психологии / Под ред. И.С. Кпециной. – Санкт-Петербург: Питер, 2003.

⁵ Hyde J.S., Fennema E. & Lamon S.J. Gender differences in mathematics performance: a meta-analysis // *Psychol. Bull.* - 1990. - Vol. 107. - P. 139-155.

⁶ Кравченко, А. В. Знак, значение, знание. Очерк когнитивной философии языка / А. В. Кравченко. – Иркутск : Иркут. обл. тип. № 1, 2001.

Shmader, Johns va Forbes tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, gender stereotiplari haqidagi xabardorlik "stereotip tahdidi" deb ataluvchi hodisaga olib keladi, bu esa kognitiv faollik va o'z kuchiga ishonchni pasaytiradi.

Ijtimoiy konstruktivizm nazariyasiga ko'ra, jins va gender faqat biologik omillar emas, balki doimiy ijtimoiylashuv va jamiyat bilan o'zaro ta'sir natijasidir. Bu kontekstda gender stereotiplari ijtimoiy tartibni nazorat qilish va kutishlarni strukturaviy shakllantirish mexanizmi sifatida xizmat qiladi⁷. Bolalar erta yoshlikdan boshlab ijtimoiylashuv jarayonida "to'g'ri" deb topilgan jinsiy rollarni egallaydi. Bu jarayonda kuzatish, taqlid, mukofotlash va jazolash orqali bola o'z jinsiga mos deb hisoblangan xatti-harakatni o'rganadi. Bu holatda ota-onalar, maktab, tengdoshlar va OAV muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy tadqiqotlar gender tengligi rivojlanayotganiga qaramasdan, stereotiplarning shaxsiy rivojlanishga, jumladan, o'zini ijodiy ifodalashga ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Stereotiplar o'zini baholashga, kasb tanlovi va ijodiy ifoda shakllariga ta'sir etadi.

Shmader, Johns va Forbes tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, gender stereotiplari haqidagi xabardorlik "stereotip tahdidi" deb ataluvchi hodisaga olib keladi, bu esa kognitiv faollik va o'z kuchiga ishonchni pasaytiradi⁸. Ayniqsa, bu tahdid texnika va tabiiy fanlar kabi "erkaklarga xos" sohalarda qizlarga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Gender stereotiplari oila, maktab, OAV, madaniyat va din kabi ijtimoiy institutlar hamda kommunikatsiya kanallari orqali uzatiladi. Bunda OAV, ayniqsa, kuchli rol o'ynaydi, ular erkaklar va ayollar haqidagi idealizatsiyalangan obrazlarni shakllantirib, o'smirlarning o'zini anglashiga ta'sir qiladi. Masalan, televizion ko'rsatuvlar va reklamalarda, odatda, erkaklar yetakchi va muvaffaqiyatli, ayollar esa mehribon ona va uy bekasi sifatida tasvirlanadi. Bu obrazlar yosh avlod ongida gender farqlarini mustahkamlab qo'yadi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Ko'plab tadqiqotlar OAVdagi takrorlanuvchi obrazlar va xabarlar gender stereotiplarning shakllanishiga hamda o'smirlarning ijodiy qiziqishlari va o'zini anglashiga ta'sir qilishini ko'rsatadi. Madaniy normalar, ayniqsa an'anaviy jamiyatlarda, o'g'il va qiz bolalarga qat'iy xatti-harakat chegaralarini belgilab qo'yadi, bu esa o'zini ijodiy ifoda qilish erkinligini cheklaydi. Masalan, patriarxal qadriyatlar hukmron bo'lgan davlatlarda o'tkazilgan tadqiqotlarda qizlar ko'pincha texnika, muhandislik, dasturlash kabi "noan'anaviy" ijodiy sohalardan voz kechishga majbur bo'lishadi.

Psixologiyada gender stereotiplarining ijodiy tafakkurga ta'sirini tushuntiruvchi bir nechta yondashuvlar mavjud. Ijtimoiy o'rganish nazariyasi bolalar ijodiy va boshqa xulq-atvor modellarini kattalar hamda

⁷ Тожибоева Х.М. Ўқувчи-ёшларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Тошкент, 2018.

⁸ Шматер Т., Джонс М., Форбс К. (2008). Інтегрована модель процесу впливу стереотипних загроз на продуктивність. Психологічний огляд, 115 (2), – С. 336–356.

tengdoshlariga taqlid qilish orqali o'rganishini ta'kidlaydi. Gender rollari o'zlashtirilishi bilan birga, tegishli ijodiy stereotiplar ham shakllanadi. Stereotip tahdidi nazariyasi o'smirlar salbiy gender stereotiplariga mos kelishga majbur bo'lganda, ularning ijodiy salohiyati pasayishini tushuntiradi. Bu tashvishli holatni keltirib chiqaradi, bu esa kognitiv moslashuvchanlik va innovatsion fikrlash qobiliyatini pasaytiradi⁹.

Ijtimoiy taqqoslash nazariyasida ta'kidlanadiki, o'smirlar o'z qobiliyatlarini o'z jinsidagi tengdoshlarining yutuqlari orqali baholaydi, bu esa stereotiplarning motivatsiya va ijodiy faollikka ta'sirini kuchaytiradi. Gender stereotiplari ta'sirida shakllangan kognitiv uslublar va strategiyalar ijodiy tafakkurga ta'sir qiladi. Qizlar ko'pincha verbal va empatik ijodiy komponentlarni rivojlantiradi, o'g'il bolalar esa fazoviy va texnik tafakkurga moyil bo'lishadi. Biroq bu farqlar, asosan, tug'ma qobiliyatlar bilan emas, ijtimoiy kutishlar va o'rgatish bilan bog'liq bo'ladi. Stereotiplar tufayli ijodiy sohalarni tanlashdagi cheklovlar kreativ salohiyatning har tomonlama rivojlanishini cheklaydi.

1-jadval.

O'smir bolalarning ijodiy tafakkuriga ta'sir etuvchi oilaviy omillar

Oila omili	Tavsif	Ijodiy tafakkurga ta'siri
Ota-onaning munosabati	Bolaning fikrini tinglash, uni qadrlash	O'smirda o'z fikriga ishonch hosil qiladi, ijodiy tashabbusni kuchaytiradi
Psixologik muhit	Oiladagi emotsional barqarorlik va o'zaro hurmat	Fikr erkinligini, ijodiy faoliyatga tayyorlikni oshiradi
Rag'batlantirish tizimi	Yutuqlarni e'tirof etish, mukofotlash	Motivatsiyani kuchaytiradi, yangilik yaratishga undaydi
Muloqot madaniyati	Fikr almashish, savol-javoblar, birgalikdagi muhokama	Tanqidiy va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi
Ota-ona namunasi	Kattalarning kitob o'qishi, ijodiy mashg'ulotlar bilan shug'ullanishi	Bolada ijodkorlikka bo'lgan ijobiy munosabat shakllanadi
Texnologik imkoniyatlar	Internet, kompyuter, mobil ilovalardan to'g'ri foydalanish	Keng dunyoqarash va yangicha g'oyalar shakllanishiga xizmat qiladi

Jadval tahlili.

“O'smir bolalar ijodiy tafakkuriga ta'sir etuvchi oilaviy omillar” nomli jadval ma'lumotlariga ko'ra, oiladagi psixologik muhit va ota-onaning shaxsiy namunasida o'smir tafakkuriga eng kuchli ta'siri mavjud. Ota-ona tomonidan erkin fikrni qo'llab-quvvatlash, tanqid qilmasdan tinglash

⁹ Festinger L.A Theory of Social Comparison Processes // Human Relations. 1954. Vol. 7, No. 2. P.

bolaga yangilik yaratish imkonini berish ijodiy fikrlashni kuchaytiradi. Shuningdek, ragʻbatlantirish va muloqot madaniyatining mavjudligi oʻsmirda mustaqil qaror qabul qilish koʻnikmasini rivojlantiradi. Bu omillar uygʻunlashgan taqdirda oʻsmir shaxsida yangilikka ochiqlik, oʻz fikrini ifoda etish va muammolarga ijodiy yondashish fazilatlari shakllanadi.

2-jadval

**Ota-onaning yondashuvi va oʻsmir tafakkuri rivojlanishi
oʻrtasidagi bogʻliqlik (soʻrovnoma natijalari asosida)**

Ota-ona yondashuvi turi	Ishtirokchilar ulushi (%)	Oʻsmir ijodiy faolligi darajasi	Tahliliy xulosa
Ragʻbatlantiruvchi, qoʻllab-quvvatlovchi	42%	Yuqori	Fikr erkinligi, ijodiy oʻzini ifoda etish kuchli
Nazoratli, talabchan	33%	Oʻrta	Tashabbus kam, ijodiy faollik cheklangan
Beparvo, eʼtiborsiz	25%	Past	Motivatsiya past, oʻz fikrini bildirishdan tiyilish mavjud

Jadval tahlili.

Ota-onaning yondashuvi va oʻsmir tafakkuri rivojlanishi oʻrtasidagi bogʻliqlikni aniqlashga qaratilgan soʻrovnoma natijalari tahlili ota-onaning ragʻbatlantiruvchi va qoʻllab-quvvatlovchi yondashuvi oʻsmir bolalarning ijodiy tafakkuriga eng kuchli taʼsir koʻrsatishini namoyon qildi. Bunday muhitda bola oʻz fikrini erkin bayon etadi, yangilik yaratishdan choʻchimaydi. Aksincha, haddan ortiq nazoratli yoki beparvo yondashuv ijodiy faoliyatni susaytiradi. Shu bois oilaviy tarbiyada psixologik ishonch, emotsional yaqinlik va bolaga shaxs sifatida hurmat bilan munosabatda boʻlish muhim omillardandir.

Yakuniy qism. Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri boʻlib, unda bola shaxs sifatida shakllanadi, maʼnaviy-axloqiy qadriyatlarni oʻzlashtiradi va intellektual salohiyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, oʻsmirlik davri bolaning psixologik rivojlanishida keskin burilish bosqichi boʻlib, bu davrda ijodiy tafakkurni shakllantirish alohida eʼtibor va yondashuvni talab etadi. Mazkur bosqichda bolaning tanqidiy fikrlash, muammolarga noanʼanaviy yechim topish, yangi gʻoyalarni ilgari surish qobiliyatlari jadal rivojlanadi. Shu bois oiladagi tarbiya muhitining ijodkorlikni qoʻllab-quvvatlovchi, erkin fikrlashga undovchi va ishonch uygʻotuvchi boʻlishi muhim ahamiyat kasb etadi¹⁰.

Oʻrganilgan ilmiy manbalar va tahlillarga asoslanib aytish mumkinki, oila aʼzolari tomonidan beriladigan ijobiy emotsional qoʻllab-

¹⁰ Miller D.I., Eagly A.H., Linn M.C. Women's representation in science predicts national gender-science stereotypes: Evidence from 66 nations // Journal of Educational Psychology. 2015. Vol. 107, No. 3. P.

quvvatlov, bolaning fikrlariga hurmat bilan qarash, uning tashabbuslarini rag'batlantirish, erkin savol-javob muhiti yaratish – bularning barchasi o'smirlarning ijodiy tafakkurini faollashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ota-onaning o'z bilim darajasini muntazam oshirishi, bolani yangi bilimlar sari ruhlantirishi va unga shaxs sifatida muomala qilishi, bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi. Bu esa ijodiy yondashuv shakllanishida poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, o'smirlarning ijodiy fikrini rivojlantirishda ijtimoiy-psixologik sharoitlar, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, oiladagi madaniy faoliyat va birgalikdagi ijodiy mashg'ulotlar katta rol o'ynaydi. Kitobxonlik, san'atga qiziqish, intellektual o'yinlar, musiqa va rasm kabi faoliyat turlari bolaning tasavvur doirasini kengaytiradi hamda analitik va divergent fikrlashni rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'smir yoshida ijodiy tafakkurni shakllantirish oilaviy muhit, tarbiyaviy yondashuv, emotsional qo'llab-quvvatlov, ijtimoiy faoliyat va intellektual rag'batlantirish omillarining uyg'unligida yuzaga chiqadi. Shu bois ota-onalar va pedagoglar bolalarda ijodiy tafakkur rivojini rag'batlantirishda izchil va ongli yondashuvni yo'lga qo'yishlari zarur. Bu nafaqat bolaning shaxsiy salohiyatini ochish, balki kelajakda mustaqil fikrlovchi, yangilikka intiluvchi, jamiyatga foydali ijodkor shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Festinger L.A Theory of Social Comparison Processes // *Human Relations*. 1954. Vol. 7, No. 2. P.
2. Hyde J.S., Fennema E. & Lamon S.J. Gender differences in mathematics performance: a meta-analysis // *Psychol. Bull.* - 1990. - Vol. 107. pp. 139-155.
3. Jung-Beeman M, Bowden EM, Haberman J, Frymiare JL, Arambel-Liu S, Greenblatt R, et al. (2004) Neural Activity When People Solve Verbal Problems with Insight. *PLoS Biol* 2(4): e97 // <https://doi.org/10.1371/journal.pbio.0020097>
4. Lenroot R.K. va Giedd J.N. O'smir miyasida jinsiy farqlar. *Neuroscience & Biohavioral Reviews*, 30 (6), 875-886, 2010 // <https://doi.org/10.1016/j.neubiorev.2006.06.001>
5. Miller D.I., Eagly A.H., Linn M.C. Women's representation in science predicts national gender-science stereotypes: Evidence from 66 nations // *Journal of Educational Psychology*. 2015. Vol. 107, No. 3.
6. Кравченко А.В. Знак, значение, знание. Очерк когнитивной философии языка / А. В. Кравченко. – Иркутск : Иркут. обл. тип. № 1, 2001.
7. Практикум по гендерной психологии / Под ред. И.С. Кнепиной. – Санкт-Петербург: Питер, 2003.
8. Сафарова Р.Г. ва б. Ўқувчи-ёшларда оммавий маданиятга қарши курашчанлик кўникмаларини шакллантиришнинг педагогик-психологик механизмлари. Монография. – Тошкент: "Tafakkur qanoti" nashriyoti, 2018.
9. Тожибоева Х.М. Ўқувчи-ёшларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Тошкент, 2018.
10. Шмадер Т., Джонс М., & Форбс К. (2008). Интегрована модель процесу впливу стереотипних загроз на продуктивність. *Психологічний огляд*, 115 (2), – С. 336–356.